

# ZAMONAMIZ QAHRAMONI BILAN UCHRASHUV



## ZAMONAMIZ QAHRAMONI BILAN UCHRASHUV

Turkiy xalqlar madaniyati va ma'naviyatini jahoniy shuhrat cho'qqisiga olib chiqqan ikki mutaffakkir alloma ajdodlarimiz Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan shu muborak kunlar arafasida Toshkent tibbiyot akademiyasida qator tadbirlar o'tkazilmoqda.

Bugun Toshkent tibbiyot akademiyasining ko'z kasalliklari kafedrasida kitobxonlikni targ'ib etish tadbirlari doirasida O'zbekiston Qahramoni, tibbiyot fanlari doktori, professor, oftalmologiya sohasining bilimdoni, KEMBRIDJ(Cambridge) ilmiy markazi oltin medali sohibi, benazir olim Rahmon Muhamadiev bilan ijodiy uchrashuv o'tkazildi.


Zamonamiz qahramoni, elimiz ardog'idagi ilmparvar inson o'zining talaba yoshlar davrasida o'tkazayotgan mazmunli umrini, shu kabi oltin lahzalar yig'indisiga qiyosladi.


O'qib izlanish, so'rab o'rganish va dunyo kezib tajriba orttirishni o'z hayotining mazmuniga aylantira olgan o'zbek olimining yangi ilmiy asari taqdimoti shogirdlari uchun kutilmagan tuhfa bo'ldi.


“OFTALBMOLOGIYA” nomi bilan rus va o'zbek tillarida kuni kecha nashrdan chiqqan mazkur qo'llanmadan yurtimiz oftalbmologiyasi rivojiga hissa qo'shib kelayotgan zamonamiz qahramonlari, ko'z kasalliklari sohasida yangi ishlanmalar yaratib tibbiyot ilmi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan o'zbek professorlari ilmi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Uchrashuvda mazkur ilmiy asarning qimmatli ahamiyatiga alohida urg'u berildi. Ko'z kasalliklarini erta aniqlash, tashhis qo'yish va to'g'ri davolashda ayniqsa, umumiy amaliyot shifokorlari uchun qulay qo'llanma ekanligi e'tirof etildi.


Surhondaryoning Bobotog' etaklarida tug'ilib voyaga yetgan serg'ayrat yigitning ilm istab, yurt kezgan yoshlik davrlari, dunyo mamlakatlarining eng nufuzli ilmiy markazlari tomonidan tan olingan tibbiy bilimi, Afg'onistonda yashab, murakkab sharoitda 20 ming nafardan ziyod bemorga ko'rsatgan malakali xizmatlari, mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab, to shu kunga qadar tanaffussiz davom etib kelayotgan serqirra ilmiy-amaliy, ijodiy faoliyati borasidagi qiziqarli hayotiy hikoyalari tafsiloti tadbir ishtirokchilari qalbida katta havas uyg'otdi.

Ayniqsa, uning A.Navoiy ijodini tibbiyot ilmi bilan uzviy bog'lab aytgan qimmatli fikrlari, ijro etgan g'azallari talab yoshlarda katta taassurot qoldirdi. Tadbir so'ngida yosh oftalmologlarga Rahmon Muhamadievning “OFTALBMOLOGIYA” kitobi tuhfa etildi.













Image not found or type unknown








Image not found or type unknown

